

BOTANIKA FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Serobova Gulbahor SHuhrat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetiga qarashli

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada hozirgi paytda zamonaviy texnologiyalarni botanika faniga tadbiq etish orqali fanlarni mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir o‘quvchining ta’lim olish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish imkoniyatini beradi. . Umum ta’lim maktablarida botanika fanlarini o‘qitishning zamonaviy ta’lim texnologiyalarini o‘rganishdan maqsad o‘quvchilarni botanika soxasiga qiziqishini yanada oshirishga asoslangan. Bunday o‘qitishning yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchini osonroq tushinishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. (keywords.) Botanika (botanic), Zamonaviy texnologiya (modern technology), klister (clister), Ven diagrammasi (Ven diagram), Atamalar (terms); gul (flower), meva (fruit), barg (leave), poya, ildiz (root)

Hozirgi paytda umum ta’lim maktablarida botanika fanlarini o‘qitishda yangi zamonaviy texnologiyalarini qo‘llashning samaradorligi, usullari, turlari, muammolarida hamda yangi zamonaviy texnologiyalari vazifalarini, ta’limiy vazifasi, o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi vazifasi, yangi zamonaviy innovatsion axborot texnologiyalarini qo‘llash mahsulotlari hamda yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning maqsadlari haqida bayon etiladi.

Botanikani o‘qitish texnologiyalariga; didaktik o‘yin texnologiyasi, muammoli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi va an’anaviy texnologiyalar kiradi [1].

Botanikani o‘qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalaridan “klaster”, “Ven diagrammasi” va “Atamalar zanjiri” kabi texnologiyalardan foydalanish mumkin. Klasterdan foydalanishda sinf o‘quvchilari teng sonli kichik guruhchalarga ajratiladi. O‘zlari klaster tuzib uni himoya qiladi hamda eng maqbul bo‘lgan klaster tuzgan va uni yaxshi tushintirib bergan kichik guruhcha g‘olib deb topiladi.[3]

Venn diagrammasi texnologiyasida fakt tushunchalarini tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash ishlari olib boriladi. Atamalar zanjiri bu darslikdagi atamalar ro‘yxati va ularni tarifi haqidagi zamonaviy texnologiya. Bu texnologiyada ham o‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi o‘quvchilar atamalarga ta’rif berishlari yoki tariflar orqali atamalar topishlari kerak bo‘ladi. Bu usul o‘quvchilarda xotirani kuchaytirishga hamda raqobatchanlikni oshirishga yordam beradi [4]

Botanika fanini o‘qitishda eng samarali bo‘lgan usullardan yana biri axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.

Ta’limiy vazifa – bu o‘rganilayotgan mavzuni tushunchalari va ularning izohlari jadvallari diagramma asosiy qo‘shimcha materiallar yordamida tushunishiga yordam beradi

Ko‘rgazmalilik vazifasi – animatsiyalar o‘quvchilar tomonidan biologiyaviy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoni mavjud.

Nazorat vazifasi – o‘quvchining qay darajada o‘zlashtirgani, baholash tizimi haqqoniy bo‘lishiga zamin yaratadi.

Rivojlantiruvchi vazifasi – vazifalar qiyinlik darajisidagi tartibda qo‘yilib o‘quvchining bilmaganlarini izlab o‘rganishiga o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga zamin yaratadi.

Tarbiyaviy vazifasi – aqliy va o‘quv ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi

Botanikani o‘qitishda quyidagi axborot texnologiyalari mahsulotlaridan foydalanish mumkun:

1. mavzuga doir taqdimot tayyorlash;
2. qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar tayyorlash;
3. test savollari tuzish;
4. krossvord tayyorlash;

Bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biri maktablarda axborot texnologiyalarini yetishmovchiligida, laboratoriya jihozlari, kimyoviy moddalarining yetishmovchiligidir. Hozirgi muammolardan biri darslarni tashkil etishda o'qituvchi didaktikadan ishlab chiqilgan ta'lim mazmunini o'qitish metodlari va vositalarning uzviylik prinsipiga amal qilish mavzulari rejada pedagogik texnologiyalarning qaysi turlarini foydalanishi o'quv yili boshida belgilash kerakligidadir [2].

Axborot texnologiyalarining eng qulay tarafi hozir O'zbekistonda ham onlayn Ta'lim rivojlanib bormoqda. Bu ta'lim tizimida axborot texnologiyalarning o'rni juda katta bo'lib bunda o'quvchi uydan chiqmagan holda darsni o'zlashtirishi lozim.

O'qituvchi dars o'tishida ham o'quvchi darsni tushunishida ham yangi zamonaviy texnologiyalarning mavjudligi juda muhimdir. O'qituvchilar axborot texnologiyalari orqali taqdimot, video, jadval, tarqatma materiallar, multimedia tayyorlashlari va prezentatsiya vositalari yordamida o'quvchilarga yetkaza olishlari ularning pedagogik mahorati nechog'li yuqoriligidan dalolat beradi [2].

Xulosa qilib aytganda botanika fanlarini o'qitishda yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda muammolar mavzusida shunday fikrlar kelib chiqadiki, biologiya fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalarini birga olib borish o'quvchilarni o'zlashtirish salohiyatini yanada oshiradi. Botanika tabiiy fanlar qatoriga kirgani sababli fanni yaxshi o'zlashtirishda tabiiy narsalardan foydalanish misol uchun ra'nodoshlar oilasi mavzusi o'tilayotgan bo'lsa ra'nodoshlar mavzusiga oid meva, gul, barg, poya, idizlar asosida dars o'tilsa yanada samarali bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki o'quvchi kitobda o'qigan malumotni, slyadda ko'rgan malumotni, ishlagan testlarda ega bo'lgan

tushuncha tabiiy o‘z ko‘zi bilan ko‘rsa o‘quvchida o‘zlashtirish qobiliyati ikki hissa ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M Ochilov. Yangi pedagogic texnologiyalar—Qarshi; Nasaf 2000 y
2. J. O Tolipov , A T G‘ofurov Biologiya o‘qitish metodikasi . pedagogika oiliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv darslik 2007y
3. <http;www.ziyonet.uz>
4. <http;www.pedagog.uz>

